

O'QITUVCHILARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM MUHITINING O'RNI

O'.Yu.Qalandarova

UrDU texnologik ta'lim kafedresi o'qituvchisi

G'.D.Shokirova

Urganch shaxar 29-son maktab o'qituvchisi

D. Rajapova

Qo'shko'pir tumani 44-son maktab o'qituvchisi

Annotasiya: *Ushbu maqolada yoshlar tarbiyasi ularga kasb-hunar o'rgatish sirlari haqida so'z borar ekan, bu yerda o'qituvchi-murabbiylar, pedagoglarning xizmati va ularning kasbiy mahorati alohida o'rin tutadi. Azal-azaldan xalqimiz farzandlarini yaxshi mudarris, ustoz, o'qituvchi qo'lga topshirishni farz deb bilgan bo'lsa, bugungi globallashuv va axborotlashgan davrda ham pedagogning jamiyatdagi mavqei yanada mustahkamlanib, uning kasbiy mahoratiga qo'yilayotgan talablar ortib bormoqda*

Kalit so'z: *kasbiy kompetentlik, innovasiya, o'qituvchi, kasbiy adaptasiya, kompetent.*

Abstract: *This article talks about the secrets of educating young people and training them in a profession, and the service of teachers and their professional skills are of special importance. Our people consider it their duty to leave their child in the hands of a good educator, teacher, teacher, because even in the current era of globalization and informatization, the position of the teacher in the society is strengthened, and the demands placed on him are getting stronger and stronger. it is increasing. increased attention to professional skills.*

Key words: *professional competency, innovation, training, professional adaptation, competency.*

Respublikamizning ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning asosiy yo'nalishi jamiyatimizda tashabbuskor, intellektual salohiyatli va ijodkor yoshlarni, yuksak malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilayotganligi e'tiborga sazovordir. Chunki yoshlarni barkamol yurtning kelajagi buyuk bo'ladi.

Yoshlar tarbiyasi ularga kasb-hunar o'rgatish sirlari haqida so'z borar ekan, bu yerda o'qituvchi murabbiylar, pedagoglarning xizmati va ularning kasbiy mahorati alohida o'rin tutadi. Azal-azaldan xalqimiz farzandlarini yaxshi tajribali, ustoz, o'qituvchi qo'lga topshirishni farz deb bilgan bo'lsa, bugungi globallashuv va axborotlashgan davrda ham pedagogning jamiyatdagi mavqei yanada mustahkamlanib, uning kasbiy mahoratiga qo'yilayotgan talablar ortib bormoqda. Bu haqda birinchi Prezidentimiz I.A Karimov aytganlaridek, "Tarbiyachi ustoz bo'lish uchun avvalo tarbiyachining o'zi har tomonlama tarbiyali va mahoratli bo'lishi darkor". Darhaqiqat, kelajagimizning poydevori bo'lgan yoshlarimizning salohiyati

bugun auditoriyalarda dars berayotgan pedagogning layoqatiga, kasbiga bo'lgan muhabbati va fidokorligiga chambarchas bog'liqdir. Shu bois, bugungi zamonaviy o'qituvchi tom ma'noda o'z fikri, bilimi, salohiyati bilan talabalarni ishontira oladigan boshqaruvchi, axbort texnologiyalari va chet tillarni mukammal o'zlashtirgan tajribali mutaxassis bo'lmog'i lozim²¹.

Buning uchun u o'z ustida ishlashi, muntazam kasbiy mahoratini oshirib borishi talab etiladi.

Ma'lumki, oliy ta'lim jarayoni o'zining mazmun mohiyatiga nisbatan bo'lajak mutaxassislardagi kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalaridagi pedagogik jarayon talabalarni nazariy tayyorgarligini tekshiruvchi, kasbiy adaptasiyasini shakllantiruvchi va yoshlarni yuksak ma'naviyatli, ijodkor shaxs sifatida kamol topishida yetakchi omillardan sanaladi.

Bu esa har qanday oliy ta'lim muassasidan:

- fan, texnika va ishlab chiqarishning ilg'or yutuqlari va rivojlangan davlatlarning tajribalaridan mutaxassislar tayyorlash jarayonida maqsadli foydalanish;

- kadrlar salohiyati va kompetentligini ta'minlash;

- ta'lim oluvchilarning bilish ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi sifatli ta'lim xizmatlarini tashkil etish;

- o'quv-tarbiya jarayonini innovasiyalar bilan takomillashtirish;

- ma'naviy-ma'rifiy sohada samarali chora-tadbirlarni olib borish;

- bitiruvchilarning ishga joylashuvi, talab va taklif munosabatlarini takomillashtirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni belgilashni talab etadi.

Zamonaviy pedagogik-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagog mutaxassislardagi kasbiy moslashish darajasining tezlashuvi nafaqat o'zlashtirilgan kasbiy bilimlar, balkim mavjud tajriba, faoliyat sohasidan xabardorlik kabi omillar bilan ham belgilanadi. Bu esa oliy ta'lim muassasasidagi o'quv-tarbiya jarayoniga bo'lajak mutaxassislardagi kasbiy bilimlarning faol va samarali o'zlashtirilishi hamda sohaga yo'nalgan ish tajribalarining qaror topishiga xizmat qiluvchi innovasion g'oyalarni kiritish zaruratini belgilaydi. Pedagog olimi N.Azizxodjayeva o'zining ilmiy izlanishlarida har qanday pedagogik innovasiya(yangilik kiritish) va innovasion jarayonlarning amaliyotga kiritilishi quyidagi bosqichlarni qamrab olishini ko'rsatadi²²:

1. Yangi g'oya tug'ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi, u kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.

2. Ixtiro qilish, ya'ni yangilik yaratish bosqichi.

3. Yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish bosqichi.

4. Yangilikni yoyish, uni keng tatbiq etish bosqichi.

²¹Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 173 b.

²²Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003. – 192 b.

5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o'zining yangiligini yo'qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo'ladi.

6. Yangi muqobilik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo'llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

Mutaxassislar tayyorlash tizimidagi innovasion pedagogik jarayonning muhim jihatlaridan biri bu-shaxsning o'z-o'zini boshqarishi va o'zini-o'zi faoliyat sohasiga safarbar qila olishi, talabalarning mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirish jihatlar bilan izohlanadi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilardagi kasbiy moslashuvchanlikni qaror toptirishga xizmat qiluvchi o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirishning samarali shakl, metod va vositalari tizimini ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish zaruratini yana bir bor tasdiqlaydi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jaraenini modernizasiyalash, pedagog mutaxassislar tayèrlash tizimi sifat darajasini oshirishda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovasiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi. Oliy ta'lim tizimini modernizasiyalash (ingl. modern – yangilangan, zamonaviy, tezkor o'sish) ta'lim jaraèniga nisbatan innovasion èndashuvni talab etadi. Pyedagogik jaraenga innovasion èndashishni o'qituvchi va talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, o'qitish va tarbiyalashning maqsadi, mazmuni va shakliga yangilik kiritish bilan izohlaydi.

“Kompetentlik” tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Vazirlar Maqkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'limning DavlatTa'lim Standartida kompetensiya tushunchasiga mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati sifatida ta'rif berilgan[3].

Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan holatlarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jaraènlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda kompetentlik bu insonning mavjud bilim va haètiy tajribalarga tayangan holda ma'lum bir muammoni hal etishga doir iqtidori degan xulosaga kelish mumkin. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarning o'z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali èndoshuv asosida olib borish samarali hisoblanadi. Ularning loyihali èndoshuv asosida o'z ustida ishlash bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalarning samarali hal etilishi navbatdagi bosqichga o'tish imkonini beradi.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishida o'zini o'zi tahlil qila olishi ham muhim bo'lib, bu mutaxasis tomonidan

kasbiy faoliyatda tashkil etiladigan o'z amaliy harakatlari mohiyatining o'rganilishi sanaladi. Mutaxassisning kasbiy-pedagogik kompetentlik sifatlariga ega bo'lishida ularning o'z-o'zini baholash malakalariga egaligi ham zarur va buning natijasida u o'zini o'zi tahlil qiladi hamda kasbiy kompetentligini xolisona baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Mohiyatiga ko'ra o'zini o'zi baholash sub'yekt uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o'ziga ob'yektiv baho berish, o'zidan qoniqishni ta'minlaydi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi o'qituvchining ham o'zini o'zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi, jumladan:

- o'zini tushunish (o'zi haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish);
- shaxs sifatida o'z qadr-qimmatini anglash (o'zi to'g'risidagi ijobiy ma'lumotlarni to'plash);
- o'zini-o'zi nazorat qilish (o'zi to'g'risidagi shaxsiy fikrning atrofdagilar tomonidan unga beriladigan bahoga mos kelishi) va b.

O'z-o'zini baholash darajasi shaxsning o'z-o'zidan qoniqishi èki qoniqmasligini belgilab beradi. Bunda o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlari shaxs imkoniyatlariga mos kelishi lozim. O'z-o'zini rivojlantirish pedagogning o'zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo'lida aniq maqsad va puxta o'ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi orqali amalga oshiriladi. Ko'plab tadqiqotchilar o'z-o'zini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri sifatida maxsus dasturlarni ishlab chiqish va tatbiq etishda deb biladi, bu dasturlar bo'lajak o'qituvchini individual rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lishi samarali natijalarni namoèn qiladi. Bo'lajak-o'qituvchini kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish maqsadiga yo'naltirilgan bu kabi individual rivojlanish dasturlari mutaxassisning o'zida ma'lum sifat, BKM, kasbiy kompetentlikni takomillashtirish va rivojlantirish ehtièjlari asosida ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Ushbu dasturda kasbiy faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish muddatlari belgilanishi maqsadga muvofiq. Har qanday pedagog o'zi uchun shaxsiy amaliy xarakterga ega bo'lgan individual rivojlanish dasturlarini ishlab chiqa olishi, u asosida pedagogik faoliyatni yo'lga qo'yishi zarur. Uning individual rivojlanish dasturi individual ravishda o'zida kasbiy-pedagogik kompetentlik sifatlarini takomillashtirish va rivojlantirish ehtièjlariga tayangan holda ishlab chiqilsagina yuqori samaradorlikka erishiladi.

Xulosa qilib aytganda zamonaviy pedagogik-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagog mutaxassislardagi kasbiy moslashish darajasining tezlashuvi nafaqat o'zlashtirilgan kasbiy bilimlar, balkim mavjud tajriba, faoliyat sohasidan xabardorlik kabi omillar bilan ham belgilanadi. Bu esa oliy ta'lim muassasasidagi o'quv-tarbiya jarayoniga bo'lajak mutaxassislardagi kasbiy bilimlarning faol va samarali o'zlashtirilishi hamda sohaga yo'nalgan ish tajribalarining qaror topishiga xizmat qiluvchi innovasion g'oyalarni kiritish zaruratini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 173 b.
2. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2003. – 192 b.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovasion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008. – 180 b.
4. Arziqulov D.N. Kasbiy kamolatning psixologik o'ziga xos xususiyatlari. Psixol. fan.nom. diss...avtolyohai. – Toshkent: 2002. -22 b.
5. X.Sharipov, N.Muslimov, M.Ismoilova: "Kasbiy ta'lim pedagogikasi". Metodik qo'llanma. – T. 2005 y.
6. M.Usmonboyeva, G.Anorkulova, G.Shamaripxodjayeva "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" o'quv uslubiy majmua. T. 2015 yil. 14-15-betlar
- 7.R.Ishmuhamedov, M.Mirsoliyeva. O'quv jaraenida innovasion ta'lim texnologiyalari. –T.: "Fan va texnologiya", 2014, 60 bet.
8. Muslimov N.M. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari.
9. Andreyev V.I. Pedagogika tvorcheskogo samorazvitiya: Innovasionnyy kurs. Kn. 1. -Kazan: Izd-vo Kazan, un-ta, 1996. - 570 s.
10. Tarasova N.V. Strategiya realizatsii kompetentnostnogo podxoda v obrazovanii: istoriko – pedagogicheskiy aspekt – M.: FIRO, 2007. – 52 s.
11. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znaniye, 1996.
12. Toshtemirova, S. (2020). Ta'limda Chirchiq tajribasi. Academic Research